

BARKAMOL AVLODNI SHAKLLANTIRISH VA TARBIYALASHDA AJDODLAR MEROSINING AHAMIYATI

Sattorova Sarvinoz Jasur qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Pedagogika
va psixologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada barkamol avlodni shakllanishi va rivojlanishida ajdodlar merosining ahamiyati tahlil qilingan holda milliy va madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, an'analar hamda tarixiy tajribalar yosh avlodning tafakkuri, dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etishi ochib berilgan. Maqolada tarixiy, psixologik va pedagogik nuqtai nazardan ajdodlar merosining yoshlar psixologiyasiga ta'siri tahlil qilinib, uning ijobiy jihatlari va zamonaviy jamiyatdagi ahamiyati yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: barkamol avlod, yoshlar psixologiyasi, ajdodlar merosi, milliy va ma'naviy qadriyatlar, tarbiya, shaxsiy rivojlanish, ijtimoiy moslashuv, Ibn Sino, haqqoniy tarix.

Hozirgi kunda yoshlarimizni har tomonlama yetuk shaxs, barkamol avlod qilib tarbiyalash uchun ulardan ham ruhan, ham jismonan kuchli bo'lmoq talab etiladi. Ko'plab tarixiy va badiiy asarlarda ma'naviy hayot asoslab berilishi bilan birga axloqiy, tarbiyaviy hamda jismoniy kuch-qudratimiz ramzi bo'lgan Alpomish, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi ajdodlarimiz siymosi keltiriladi. Bu esa yoshlarni mard va jasur inson bo'lishga undaydi. Yoshlar bu siymolarga nazar tashlar ekan, birinchi tomondan, tarixga nazar tashlab ma'naviyatini mustahkamlasa, ikkinchidan tomondan esa jismoniy holatga befarq bo'lmaydi. Chunki, bu siymolarning qad rostlab turishi yosh avlodga g'urur va iftixor bagishlaydi.

Jismoniy barkamollikda yoshlarimiz kimlarning avlodlari ekanligini o'zligini unutmazlikga undasa, ilm-fan bilan dunyoga tanilgan Ahmad Farg'oniy, Al-Xorazmiy, Ibn Sino, Farobiy, Buxoriy, Navoiy va boshqa shu kabi allomalarning ta'lim-tarbiya,

ilm-ma'rifat sohasida qoldirgan o'g'itlari insoniylik va odob-axloq sari undaydi, hamda tarixga nazr tashlab o'z kelajagini mustahkam qurishga ko'maklashadi[3]. Bizning asosiy maqsadimiz yoshlarni bobokalonlarimizdek ilmi, ma'rifatli, mard, jasur bo'lishga undash bo'lmog'i kerak.

Shu o'rinda, birinchi Prezidentimiz I. Karimovning "Haqqoniy tarixni bilmaydigan, kechagi kunini unutgan davlatning kelajagi yo'q" deya aytgan hayot haqiqatini unutish bu o'zligimizni unutishdir. Aqlli, idrokli, mard kabi sifatlar har bir insonga yoqadigan xususiyatdir. Shuningdek, eng buyuk jasorat bu ma'naviy jasorat deya ta'riflashida ham katta ma'no bor, albatta. Yoshlarning jismoniy jihatdan egallagan kuchi ma'naviyatini mustahkamlashga yordam beradi, lekin har doim inson tanasida bir xil turmaydi. Yosh o'tgan sari inson tanasini tark eta boshlaydi, ammo ma'naviy kuch esa insonni butun umr bo'yi tark etmaydi. Shunday ekan yoshlarni buyuk jasorat sohibi qilib tarbiyalash uchun ma'naviy olamini yanada yuksaltirishimiz kerak[2].

Ma'naviy olamini boyitishda esa ajdodlarimizning ma'naviy merosidan foydalanmog'imiz darkor. Bu ma'naviy merosni yoshlarga o'rgatish ajdodlarimizga bo'lgan cheksiz hurmatdan boshlanadi. Hurmat esa yoshlarni o'sha insonlardek ilmi, bilimli bo'lishga undaydi. Bizning buyuk mutafakkirlarimiz ilmiy merosini bugungi kunda milliy mafkuramizga asoslangan ta'lim tizimiga kiritib o'qitish jarayonida, bo'lajak pedagog va tarbiyachilarga ularning hayoti, ijod maxsuli to'g'risidagi ma'lumotlarni shunchaki berib ketish yetarli emas. Ularning asarlarini bevosita mustaqil o'qib o'rganish, ularni guruhlarda jamoaviy muhokama qilishga erishish oqibatida bo'lajak mutaxassislarda vatanparvarlik, insonparvarlik, diniy, dunyoviy mushohada shakllanadi[5]. Nima uchun Sharq uyg'onish davridagi allomalar bu qadar yuksak natijalarni qo'lga kiritganliklari tahlil qilinadi.

Bugungi kunda ularning boy merosini o'qib emas, uqib tahlil qilish lozimligi ko'nikmasi shakllanishiga erishish kerak. Bunga men metodika sifatida bitta mashg'ulotni namunasini tavsiya etaman. Bog'cha va maktablarda gigiyenik tarbiya bo'yicha tarbiyaviy soat yoki mashg'ulot tashkil etish mumkin. Abu Ali ibn Sinodek

bobomiz bizga “sogʻlom boʻlish uchun ruh va tana sogʻlomligi muhim ekan” ligini aytib ketganlar, – deya bolalarga oʻrgatsak, avvalo Ibn Sino haqidagi birinchi tasavvurlari paydo boʻlishiga erishamiz[4].

Sogʻlom boʻlish insonga nima uchun kerakligini chiroyli omillar bilan tushuntirsak, tana sogʻlomligi ozoda yurish, qoʻlni oʻz vaqtida yuvish, oʻz vaqtida choʻmilish, kiyimni toza kiyish, oʻz vaqtida almashtirish, oʻz vaqtida uxlash, oʻz vaqtida ovqatlanish, jismoniy mashqlanish, toʻgʻri yurish, toʻgʻri yotish, toʻgʻri oʻtirish, toʻgʻri harakatlanish boʻlsa, ruh sogʻlomligi odamlarni yaxshi koʻrish, ular bilan urushmaslik, qizgʻonchiq boʻlmaslik, yolgʻon gapirmaslik, birovni nooʻrin xafa qilmaslik, kattalarni hurmat qilish kerakligi asosida shakllanishini misollar, mashqlar, vaziyatlar orqali taqqoslab oʻratilsa, bolalar ongida saqlanib qoladi. Uyda esa ota-ona tomonidan bu yana amaliy mashqlar bilan takrorlansa, endi bolada bu holat koʻnikmasi paydo boʻladi[1].

Buning uchun tarbiyachi, oʻqituvchilar “Kun mavzusi” ni tuzishlarini, uning mazmunini qisqacha ota-onalar uchun tashkil etilgan doskaga yoki telegram kanaliga joylashtirib qoʻyishlarini tavsiya qilaman. Ota-onalarga ham qisqacha tavsiyalar berib qoʻysalar, ular uyda farzandi bilan kun mavzusini muhokama etadi, deb oʻylayman. Natijada har bir oʻrganilgan maʼlumot vaqt oʻtib analiz-sintez natijasida, bola ongida fikrlash va taqqoslashni yuzaga keltiradi, oʻzi mustaqil xulosalash imkoniyatiga ega boʻladi. Ana unda bu fikrni Abu Ali ibn Sino tomonidan aytilganligini eslaydi va bu inson haqida maʼlumotni oʻqib oʻrganish ishtiyoqi paydo boʻladi.

Biz har bir mutafakkir allomalarimiz haqida bolalarga tanishtiruvni amalga oshirishda oʻz davrida Ibn Sino taʼkidlab ketgan “bolani qiziqish va istaklarini inobatga olib, oddiydan murakkabga” uslubini amaliyotga targʻib etsak, koʻzlangan maqsadga yetish yoʻlini yoritgan insonga aylanishimizga shubha yoʻqdir.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Barkamol avlodni shakllanishi va rivojlanishida ajdodlar merosi muhim omillardan biri hisoblanadi. Milliy va madaniy qadriyatlar, urf-odatlar, tarixiy tajribalar va anʼanalar yosh avlodning maʼnaviy-axloqiy rivojlanishiga, dunyoqarashi va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Ajdodlar

merosidan to'g'ri foydalanish yoshlarning ijtimoiy moslashuvini osonlashtiradi, ularni vatanparvarlik, odob-axloq, mehr-oqibat kabi ezgu fazilatlarga yo'naltiradi. Zamonaviy jamiyat sharoitida ajdodlar merosini ilmiy va innovatsion yondashuvlar bilan uyg'unlashtirish yoshlarning ruhiy va intellektual salohiyatini yanada rivojlantirishga xizmat qiladi. Shu sababli, yosh avlodning tarbiyasida milliy qadriyatlarni saqlab qolish va ularni zamonaviy hayot talablari bilan uyg'unlashtirish muhim vazifalardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent. 1993. 39-42-b.
2. Karimov I. Barkamol avlod – O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. 1997. 46-49-b.
3. Karimov I. "Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch". Toshkent. 2008. 18-19-b.
4. Mamanazor U., Sultonova D. Ajdodlarimiz qoldirgan ilmiy me'rosning yoshlar xulqiy-tarbiyaviy ongi shakllanishidagi psixologik o'rni. International Islamic Academy of Uzbekistan. IIAU Conference 1. 2022. 257-259-b.
5. www.wikipedia.org. internet sayti.